

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MUSIQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI

Mamadiyeva va Sayyora Foziljonovna

Namangan Davlat Universiteti

“ Musiqa ta'limi va san'at” yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarining musiqiy savodxonligini oshirish usullari to'g'risida so'z yuritiladi. Maqola talabga ko'ra annotatsiya, kalit so'zlar, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinflar, DTS, musiqiy bilim, musiqa savodxonligi, musiqiy ko'nikma, ovoz, nota, qo'shiqchilik

METHODS OF INCREASING MUSIC LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Mamadiyeva Sayyora Foziljonovna

Namangan State University

Master Student of Music Education and Arts

Annotation

This article discusses the methodology of developing the musical ability of primary school pupils. The article consists of an annotation, keywords, introduction, main part, conclusion and a list of references, as required.

Keywords: primary school, DTS, music education, music literacy, musical skills, voice, music, singing

Barchamizga ma'lumki, musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsini rivojlantirishda muhim kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi gozal narsalarni to'g'ri idrok etishiga va qadrlashga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinfdagi musiqa savodini olib borishda o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashlarini ham shakllantirib borishga erishish lozim. Musiqa insonni yuksak did bilan qurolantiradi va madaniy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarning nafosat olamiga olib kirish va ahloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurolantiradi va madaniy dunyoqarashini shakllantiradi.

Shunday ekan umumta'lim maktablarida musiqa ilmidan ta'lim va tarbiya olayotgan o'quvchilarga mustahkam bilim berishda yuqoridagi manbalarga tayanib, yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan kompyuter texnologiyalariga asoslangan amaliy – nazariy bilimlarimiz hamda internet ma'lumotlari asosida darslarni tashkil etishimiz lozim.

Musiqa madaniyati darsida bolalar musiqa savodxonligiga erishadilar, kuy- qo'shiqlarni o'rganadilar hamda estetik zavq oladilar. Musiqiy faoliyat turlari bilan keng tanishadilar hamda barcha darslarda musiqaviy faoliyat turlarini o'rganadilar va unga amal qiladilar. Jumladan, musiqa tinglash ham musiqiy faoliyatning eng yetakchi faoliyatlaridan biridir.


Musiqa tinglashning ham o'ziga xos muhim ahamiyati bo'lishi bilan birga o'quvchilar amal qiladigan qoidalari ham mavjuddir.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi milliy musiqiy merosimizdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida, maqom, shashmaqom, doston va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topadi.

Musiqa san' tining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularni barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Aynan DTS da boshlang'ich sinf o'quvchilarining "Yil mavzulari" berib o'tilgan bo'lib, bunda musiqa tinglash, Ya'ni qanday musiqalarni tinglash, jamoa bo'lib kuylash hamda musiqa savodi ko'rsatilgan.

"O'qituvchi kuylash uchun mo'ljallanadigan mashqlardagi turlicha cho'zimda uchraydigan kuylarni tanlaydi. Ikki satrli mashqni bolalar bilan kuylash maroqli bo'ladi; bunda, yuqorigi satrni sinfning birinchi yarim, pastki satrni esa - ikkinchi yarmi qo'yiladi, deb uqtirib o'tiladi. Ular galma-gal kuylashadi. Bir guruh sukut qilganida (jim turganida) nota satriga pauzalar qo'yib chiqiladi:

Pauzalarning cho'zimlarini yaxshirok esda qoldirish uchun quyidagi jadvalni yozish foydali bo'ladi:




O'quvchilarga quyidagi mashqlarni bajarishni taklif qilish mumkin:


a) quyidagi ko'rsatilgan notalarga to'g'ri keladigan pauzalarni yozing:




b) cho'zimi jihatidan quyida ko'rsatilgan pauzalarga mos keladigan notalarni yozing:



3-sinfda o'quvchilar cho'zimlarning yana bir turi bo'lgan nuqtali nota - pauza bilan tanishadilar. O'qituvchi tushuntirib aytadiki, nuqta notaning tovush cho'zimini yarim marta oshiradi. Ma'lumki, chorak ikki nimchorakdan iborat, demak, agar chorak notaning o'ng tomonida nuqta bo'lsa, uning cho'zimi bir nimchorak oshadi.



Deyarli ayni paytda tovushlarni bir butun qilib bog'laydigan belgi - liga haqida ham tushuncha beriladi. Masalan, liga orqali birlashgan bir xil balandlikdagi ikki tovush takrorlanmaydi, balki go'yo shakllanadi va jamlanadi hamda ikki tovush qancha davom etishi kerak bo'lsa, bir tovush ham shuncha vaqt davom etadi:



Bundan tashqari, agar liga balandlik jihatidan turlicha bo'lgan ikki (yoki undan ortiq) tovushni birlashtirsa, u boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bu holda liga tovushlarini bir-biriga bog'lab ijro etish (legato), qo'shiqda esa bu tovushlarni bir bo'g' in singari aytish kerakligini ko'rsatadi:



Liga tufayli nuqtali notaning boshqa bo'lishi mumkin. O'qituvchi nuqtali notaning aniq ma'nosini qo'shiq misollarida ko'rsatib beradi.

Shunday qilib, biz notalar yozuvi bilan bog'liq bo'lgan asosiy ish metodlarini ko'rib chiqdik. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar nota yozuvi bilan tanisha boshlagan paytdayoq ulardan har xil nota belgilarini to'g'ri aniq va chiroyli ifodalab borishni talab etish zarur. Nota yozuvini mashq qildirish maqsadida uyda bajarish uchun bolalarga turli vazifalarni topshirish ma'qul. O'qituvchining nota yozuvi o'quvchilarga namuna bo'lishi, ya'ni nota yo'llarini to'g'ri chizishi, notalarni aniq-ravshan va chiroyli qilib yozishi kerak. Sinfda ishlash uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan mashqlar chiroyli, ravshan va yaqqol ko'rsatilgan jadvallarni olib kirish yaxshiroqdir.”¹

Bolalarda ritm tuyg'usini o'stirish ustida olib boriladigan ish, ularni nola cho'zimi bilan tanishtirish tufayli bolalar musiqadagi o'lchovni, shuningdek, takt va takt chizig'ini idrok etishga tayyorlana borishadi. O'qituvchi, musiqada kuchli va kuchsiz hissalarining almashinib turishi o'lchovni belgilaydi, deb tushuntirib beradi. Masalan, agar bitta kuchli hissa bilan bitta kuchsiz hissa almashinayotgan bo'lsa, bu ikki hissali o'lchov hisoblanadi, bitta kuchli hissa bilan ikkita kuchsiz hissaning almashinib turishi uch hissali o'lchovni tashkil qiladi.

2 - sinfda o'lchov bilan tanishuv eng oddiy va ko'pincha quyi sinflarda bor qo'shiqlarda uchraydigan 24 ikki hissali o'lchovdan boshlanadi.

Bolalarni o'lchov va takt tushunchalari bilan tanishtirishning turli metodlari bor. Eng oddiy metod – she'r so'zlaridagi urg'ular bilan musiqa notasidagi urg'ularni qiyos qilib ko'rsatishdir. Avvalo o'qituvchi bolalarga qo'shiq so'zlarini o'qib, urg'uli bog'inlarning tagini chizib chiqishni taklif etadi. Qo'shiq so'zlari doskaga yozib qo'yiladi, urg'uli bo'g'inlar alohida belgi bilan ko'rsatiladi.

So'ngra o'qituvchi qo'shiqning notasi va so'zlarini doskaga yozadi, musiqada urg'uli bo'g'in oldiga maxsus belgi qo'yilishini, ya'ni nota yo'li ustida yuqoridan pastga qarab chiziq tortilishini tushuntirib beradi:

Xulosa qilib aytganda, bolalarning diqqat bilan musiqa tinglashlari asta-sekin odat tusiga kirib boradi, bu o'z navbatida musiqa darslarining eng muhim shartlaridan biridir. Bu musiqa asarini chuqur va to'raligicha idrok etishga juda keng imkoniyat ochib beradi. O'quvchilarni bevosita musiqa tinglashga tayyorlash ularning diqqatlarini bir joyga to'plab tinglanadigan asarga nisbatan qiziqish uyg'otish alohida ahamiyatga egadir.

O'quvchi asarni tinglashga qo'yish oldidan bolalar diqqatini asar mazmuniga; uning yaratilish yoki shu asar bastakori ijodiga bag'ishlangan qisqa va qiziqarli suhbat o'tkazish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars jarayonida tinglash qoidalarini o'stirishda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ritmni sezish va unga amal qilishni shakllantirish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlantiriladi. Shuni alohida aytib o'tish joizki, musiqa tinglash- musiqa o'quv dasturining mazmunini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. – T.: “Muharrir”, 2010.
2. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. 6- maxsus soni. T. 1999.
3. Fayziev O. Maktabda musiqiy tarbiya. T.1991
4. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, - Fan, 2008 yil.

¹ T.Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. T.: Muharrir, 2010.